



DUDUQLANISH BELGILARI VA KELIB CHIQISH SABABLARI

Andijon Davlat Pedagogika Instituti
Maxsus pedagogika: logopediya
yo'nalishi 1-bosiqich talabasi
Xomitova Feruza Ravshanbek qizi
Ilmiy rahbar: assisent o'qituvchisi
Axmedova Vaziraxon Tursunboyevna.

Doi: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15233590>

Anatatsiya: Ushbu maqolada duduqlanishda ish olib borgan olimlar, duduqlanishning asosiy

belgilari, kelib chiqish sabablari haqida yoritib o'tilgan.

Kalit so'zlar: nutq markazlari, assotsiativ, tashqi nutq apparati, vegetativ asab sistemasi, stress.

Ma'lumki, hozirgi kunda juda ko'p bolalarda uchrab kelayotgan duduqlanish har bir otanani tashvishga solib qo'yimoqda. Duduqlanish kasallikmi yoki nuqson, buni anglash ham qiyin. Olimlar olib borgan ishlardan shuni aytish mumkinki, duduqlanish vaqti-vaqti bilan qo'zg'ab turadi. Duduqlanishni bartaraf etish uchun katta kuch va sabr talab etadi. Agar duduqlanish o'z vaqtida bartaraf etilmasa bolaning ruhiy rivojlanishiga salbiy ta'sir etadi. Bola o'z fikrini mustaqil bayon eta olmasligi natijasida tengdoshlari bilan muloqotga kirisha olmaydi. Duduqlanish muammosini nutq buzilishlari haqidagi ta'limotning rivojlanishi tarixida eng qadimiylaridan biri hisoblanadi. Duduqlanish- bu nutq apparati muskullarining natijasida nutqning sur'at ohangining buzilishidir.

Duduqlanish XVII-XVIII asrda tashqi nutq apparatining etishmaganligi sifatida talqin qilindi. XX- asrdan boshlab duduqlanish mexanizmi haqidagi barcha tushunchalar uchta nazariy yo'nalishga ajratildi.

1. Duduqlanish nutq markazlarini muvofiqlashtiruvchi apparatning qo'zg'aluvchanligi, zaiflashuvi natijasida sodir bo'ladigan koordinatsion nevrozdir. G. Gutsman, I. A. Kusmaul, I L Skorskiyiar duduqlanish bu nevrozizm jarayoni, duduqlanish bu — paay tortishishiga o'xshash spazmalardir, deb tushuntirishdi.

2. Duduqlanish ruhiy xarakterdagi assotsiativ buzilishdir. Bu yo'nalishlarni T. Gefner, E. Freshels tomonidan o'rganildi. Duduqlanish mexanizmlarini tushuntirishga nisbatan psixologik yondashuv o'zining navbatdagi taraqqiyotini davom ettirdi.

3. Duduqlanish ruhiy jarohatlanishda atrof muhit bilan bo'ladigan turli ziddiyatlar natijasida kelib chiqishini A. Adler, Shneyder o'z nazariyalarida ochib berdilar. Shunday qilib XIX-XX-asr boshlarida duduqlanish bu murakkab psixofizik buzilish degan fikrga kelishdi. Duduqlanishni nevrozlar haqidagi Pavlov ta'limoti nazariyasini o'rganish chet ellarda o'z izdoshlarini topmoqda. Chehoslavakiyada — M Zeemin, M So'vak, K Dostalova; Bulgariyada — D Daskalov, A Atanasov, A Angushev; Polshada — A Mitrinovich, Germaniyada — Bekker va boshqalar duduqlanish haqida ko'plab ma'lumotlar berib o'tishgan. [1.321-b.]

Duduqlanish ko'pincha maktab va maktabgacha yoshdagi bolalarda uchraydi. Bola nutqi rivojlanib murakkabroq jummalarni ifodalay boshlaganda duduqlik sezila boshlaydi. Uning asosiy belgilari quyidagilar:

So'z yoki jumlani boshlashda qiyinchilik;

So'z yoki so'z ichidagi tovushlarni uzaytirish;

Gapirayotganda ba'zi bo'g'inlar va so'zlarni aytishga harakat qilganda qisqa muddatli sukunat;

Keyingi so'zga o'tish qiyin bo'lsa, «mmm» kabi qo'shimcha so'zlarni qo'shish;



So‘zlarni ishlab chiqarishda yuz va tananing haddan tashqari cho‘zilishi;

- Gapirishdan tashvishlanish;
- Samarali muloqot qila olmaslik;
- Gapirganda lablar va iyaklarning titrashi;
- Gapirayotganda mushtlarni siqish;

kabi belgilar kuzatiladi. Duduqlanishga uchragan insonlar stressli , charchagan yoki hayajonlanganda ko‘proq duduqlanadi. Shoshilish va bosim ostida his qilish duduqlanishni kuchaytiradi. Guruh oldida yoki telefonda gapirish duduqlangan odamlar uchun juda qiyin. Duduqlar o‘zlari bilan gaplashish yoki qo‘shiq aytish uchun qulayroqdir.

Duduqlanishning sabablari.

Duduqlanishni kelib chiqishiga sabab yosh bolalarning hali shakllanib ulgurmagan nimjon asab sistemasiga har turli zararli ta’sirlar natijasida vujudga keladi. Masalan qo‘rqish, uydagi ota-onalar o‘rtasidagi shovqinli vaziyatlar, to‘polonlar, janjallar bolakay uyqusida cho‘chib uygonishiga qo‘rqishiga sabab bo‘ladi. Bu qo‘rquv shunday kuchli bo‘ladiki, bolakay uyqusida ham qo‘rqib uyg‘onadigan bo‘ladi, to‘polon qilganlarga ishonchsizlik huddi xozir yana janjal boshlanadigandek qo‘rquv alomatlarini, uning hatto ko‘z qarashlarida ham bilinadigan , kattalarga botinib qaray olmaydigan bo‘ladi. Yosh bolalarda taqlid kuchli bo‘lganligi sababli, ba’zi birlari duduq o‘rtoqlaridan duduqlanishni o‘rganadilar. Duduqlikning yana bir belgilari hammaga ma’lum bo‘lib , ular gapira boshlagan zaxoti duduqlanuvchi bolalarning mushaklari tortisha boshlaydi. Ba’zi hollarda duduqlanuvchi bola 1- so‘zni aytmoqchi bo‘lganda og‘zini ocha olmay qoladi. Duduqlanishni og‘ir hollarida yuzi qizarib, yuzdagi mushaklar, ko‘z atrofidagi mushaklar tortishishi, hatto terlab ketishi mumkin. Yurak urishi, nafas olishi tezlashadi. Bu holat bolaning vegetativ asab sistemasi faolaytida nuqsonlar borligini bildiradi. Nutqning bunday nuqsonida bola ko‘pchilik o‘rtasiga chiqib biron-bir so‘z aytishi dahshatdek tuyuladi. Shu sababli duduqlanuvchilar psixologiyasida , shubhalanishlik, gumonsirash, kayfiyatning pastligi , o‘z kuchi va irodasiga ishonmaslik kabi hislatlar ko‘proq bo‘ladi. Duduqlanishni davolashga erta kirishilsa , shunchalik tez yaxshi natijalarga erishish mumkin. Davolash choralari samarali bo‘lishi uchun, bolaning o‘zida ham bu nuqsondan qutulish istagi bo‘lishi, va davolash muolajalarida faol ishtirok etishi kerak

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, bolalarda duduqlanish turli sabablarga ko‘ra bo‘lishi mumkin, jumladan irsiy omillar, neyrofiziologiya, rivojlanish omillari, psixologik muammolar, atrof-muhit ta’siri, nutq va til buzilishlari, nevrologik holatlar, dori-darmonlar yoki tibbiy sharoitlar. Kekalanishning turli xil sabablarini tushunish ota-onalarga, o‘qituvchilarga va tibbiyot xodimlariga ushbu nutq buzilishi bilan kurashayotgan bolalarga tegishli yordam va davolanishni ta’minlashga yordam beradi. Bolalar duduqlanishning asosiy omillarini bartaraf etish orqali nutqning ravonligi va muloqot ko‘nikmalarini yaxshilaydi, bu esa hayot sifatini yaxshilashga va ijtimoiy o‘zaro munosabatlarni yaxshilashga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. M.Y. AYUPOVA LOGOPEDIYA Toshkent (2007)
2. Logopediya M. Ayupova , L. Mo‘minova Toshkent (1993)
3. Elektron manbalar. <https://medall.uz/duduqlanish-nima-sabablari-va-davolash/>